OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDI RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHATLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI	1002
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich	
NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH KLASHTERINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLLI MANBALARI.....	1011
Abduraxmanov Muxtorali Abduvoxidovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	1016
Авезова Шахноза Махмуджановна	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
Obilov Mirkomil Rashidovich	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODEL.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHINING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafro‘z Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОТП GROUP	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	



UDK: 336.027

MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xusanov Durbek Nishanovich

TKTI "Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti" kafedrası professori,

Iqtisodiyot fanlari doktori

[ORCID: 0009-0008-5362-8738](https://orcid.org/0009-0008-5362-8738)

Annotatsiya. Maqolada mamlakat investitsiya faolligini shakllantirish tizimi, investitsion faollikni aks ettiruvchi omillar, hududlarning investitsion salohiyatini shakllantirish tartibi hamda investitsion faollikka ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan va tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: investitsiyalar, investitsiya loyihasi, investitsiya muhiti, investitsion salohiyat, investitsiya faolligi.

Abstract. The article examines and analyzes the system for shaping a country's investment activity, the factors reflecting investment activity, the procedure for forming regional investment potential, and the determinants influencing investment activity.

Key words: investments, investment project, investment climate, investment potential, investment activity.

Аннотация. В статье изучены и проанализированы система формирования инвестиционной активности страны, факторы, отражающие инвестиционную активность, порядок формирования инвестиционного потенциала регионов, а также факторы, влияющие на инвестиционную активность.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционный проект, инвестиционный климат, инвестиционный потенциал, инвестиционная активность.

KIRISH

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlash keng qamrovli tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirib borishni taqozo etadi. Ana shunday muhim tadbir va ustuvor yo'nalishlardan biri mamlakatimizning barcha tarmoqlarida samarali investitsiya faoliyatini tashkil etish, investitsiya muhiti, investitsiya jarayonlari, investitsion salohiyat, investitsiya faolligi va jozibadorligini oshirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli investitsiya — bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur anglab olishimiz va faoliyatimizni aynan shu asosda tashkil etishimiz shart. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'liq namoyon etish choralari ko'rish kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lmog'i lozim"¹.

So'nggi yillarda 18 ta davlatlararo rasmiy tashrif amalga oshirildi hamda umumiy qiymati 52 milliard AQSh dollarini tashkil etuvchi 1 ming 80 ta loyiha bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan investitsiyalar hajmi 8,5 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi (<https://kun.uz/99444746>).



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda olib borilayotgan iqtisodiy tadqiqotlarda mamlakat investitsion faoliyatining nazariy va amaliy asoslarini o'rganish muammolariga yetarlicha katta e'tibor qaratilmoqda. Biroq iqtisodiy adabiyotlarda "investitsiyalar", "investitsion faoliyat", "investitsion mexanizm" va shu kabi tushunchalar to'g'risida hanuzgacha yagona, umumqabul qilingan yondashuv mavjud emas. Bundan tashqari, bizning nazarimizda, nazariy nuqtayi nazardan ilmiy qiziqish uyg'otadigan investitsiyalashtirish va tadbirkorlik faoliyati kabi tushunchalarning mohiyatiga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan.

Ko'pgina ilmiy adabiyotlarda "investitsion faollik"ka yaqin bo'lgan "investitsion jozibadorlik", "investitsion muhit", "investitsion imidj" kabi tushunchalar sinonim sifatida qo'llanib kelinmoqda. Bizning fikrimizcha, "investitsion faollik" mustaqil iqtisodiy kategoriya bo'lib, xo'jalik subyektlarining barqaror moliyaviy holatini tavsiflaydi hamda muayyan davr uchun real resurslarning safarbar etilishini anglatadi. Uni investitsion talabni qondirishga xizmat qiluvchi jarayon sifatida ham talqin etish mumkin.

Investitsion iqlim ichki va tashqi investitsiyalarning kirib kelishiga ta'sir ko'rsatadigan yalpi iqtisodiy, siyosiy va moliyaviy sharoitlar majmuini ifodalaydi.

Investitsion faoliyat ko'p qirrali va o'ziga xos tushuncha bo'lib, nazariy jihatdan yondashilganda, iqtisodiyotning tadqiqot obyekti sifatida real sektorini ta'riflash zaruratini yuzaga keltiradi. Iqtisodiyotning real sektori iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Iqtisodiy va moliyaviy lug'atlarda ta'kidlanishicha, iqtisodiyotning real sektori bevosita moddiy ishlab chiqarish, daromad yaratish va budjetni to'ldirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiyot sohasi hisoblanadi.

"Investitsion faoliyat" tushunchasi "investitsion jarayon" tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Iqtisodiy adabiyotlarda mazkur terminning bir nechta ta'riflari mavjud. Jumladan, Ye.M. Ilinskaya va T.P. Denisova investitsion jarayonni tayyor yoki oraliq mahsulotlar ko'rinishidagi investitsion tovarlarni yaratish jarayoni sifatida ta'riflaydilar [1]. N.S. Kosov fikriga ko'ra, investitsion jarayon iqtisodiy kategoriya sifatida ishlab chiqarish hamda ijtimoiy sohalarida, asosiy va aylanma kapitalni qo'llab-quvvatlash, takomillashtirish va kengaytirish bilan bog'liq barcha bosqichlarda investitsion soha ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar yig'indisini o'zida aks ettiradi [2].

U. Sharp investitsion jarayonning mohiyatini tahlil qilar ekan, uni bir nechta bosqichlarga ajratadi va quyidagilarni ko'rsatib o'tadi: investitsion siyosatni tanlash, qimmatli qog'ozlar bozorini tahlil qilish, qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish, portfelni qayta ko'rib chiqish hamda qimmatli qog'ozlar portfeli samaradorligini baholash [3].

Bizning fikrimizcha, investitsion salohiyat mamlakatning investitsiyalar kirib kelishi uchun ochiqligi, iqtisodiy resurslar zaxiralarining mavjudligi va ularning hajmi bilan belgilanadi. Investitsion salohiyat joriy va kelgusidagi investitsion resurslar hamda ulardan muayyan investitsion maydon doirasida foydalanishning real va ehtimoliy natijalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yig'indisini ifodalaydi. Mazkur ta'rif investitsion salohiyatni faqat resurs bazasi va uning tarkibiy qismlarigina bilan cheklab talqin qiluvchi yondashuvlardan tubdan farq qiladi. Ushbu ikki tomonlama yondashuv shuni ko'rsatadiki, investitsion resurslar faqat jalb etilmaydi, balki ulardan foydalanish jarayoni natijasida yaratiladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan biri Sh.I. Mustafoulov investitsion muhit va uning shakllanishiga to'xtalib, quyidagi fikrni bildiradi: "investitsion muhit – investitsion jarayonlar amalga oshiriladigan sharoit bo'lib, u hududning investitsion faolligi hamda investitsiyalarning risk darajasini belgilovchi siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va boshqa omillar ta'siri ostida shakllanadi" [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada qiyosiy tahlil, shuningdek, induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usul asosida soliq imtiyozlariga doir ma'lumotlar tahlil qilindi hamda olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi davrda mamlakatda investitsiya faolligini oshirish maqsadida erkin iqtisodiy munosabatlar prinsiplari asosida faoliyat yuritayotgan mamlakatlar tajribasi, shuningdek, respublikada ushbu sohadagi ilg'or amaliyotlar tahlil qilindi. Mazkur yondashuv asosida investitsiya faolligini kuchaytirishga qaratilgan to'rt guruh yo'nalishdan iborat chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqildi.

Mamlakatda investitsiya faolligini shakllantirish tizimini tashkil etishda quyidagi chora-tadbirlar muhim hisoblanadi:

- investitsiyalashtirishning moliyaviy mablag'lari va manbalarini aniqlash, shuningdek, ularni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar hamda imtiyozlar yaratish;

Investitsiyalash-ning moliyaviy mablag'lari va manbalarini aniqlash hamda ularni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar va imtiyozlar yaratish	Samarali investitsiyalashni ta'minlovchi bozor subyektlarini shakllantirish va ularni qo'llab quvvatlash	Real investitsiya talabiga mos resurslarni jalb etishni ta'minlovchi makroiqtisodiy muhitni shakllantirish	Davlat tomonidan investitsiya jarayoni subyektlarini rag'batlantirish
· xo'jaliklarni ichki mablag'lari; · davlat budjeti mablag'lari; · xorij kompaniyalarning mablag'lari; · xalqaro moliyaviy yordam mablag'lari; · bank kreditlari.	· turli mulk shakllariga asoslangan xo'jalik yuritish subyektlarini shakllantirish va rivojlantirish; · iqtisodiyot tarmoqlarida xususiy lashtirishni davom ettirish; · to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishni qo'llab-quvvatlash.	· aholi jamg'armalari mablag'larini investitsiyalarga jalb etish uchun davlat tomonidan qulay shart-sharoitlar yaratish; · joriy inflyatsiya darajasini pasaytirish; · davlat budjeti kamomadi va davlat qarzini qisqartirish; · monopoliyaga va korupsiyaga qarshi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish; · bank foiz darajasini pasaytirish; · tadbirkorlikning barcha shakllarini investitsiya jarayonlarida faol ishtirok etishlari uchun qulay huquqiy-tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish.	· barcha ishlab chiqaruvchilarga kapital mablag'larini jalb etishni iqtisodiy rag'batlantirish; · samarali amortizatsiya ajratmasi siyosatini o'tkazish va soliq yukini kamaytirish; · maqsadli investitsiya siyosatini ustuvor yo'nalishlarini shakllantirish; · investorlarga kapital jamg'arishda amaliy yordam ko'rsatish; · investorlarga kafolat berish; · lizing munosabtlarini rivojlantirishga amaliy yordam ko'rsatish.



1-rasm. Investitsion faollik omillari³

Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror rivojlantirish tarmoqning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, yuqori unumli, zamonaviy asosiy vositalar sotib olish, qayta ta'mirlash, qurish uchun uzoq muddatli va aylanma mablag'larga sarf qilinadigan qisqa muddatli investitsiyalarni jalb etish sur'atlari va ularning miqdoriga boq'liqdir.

Iqtisodiyot tarmoqlarida investitsiya faolligini oshirishda uzoq va qisqa muddatga jalb etiladigan investitsiyalar nisbati va miqdori ham muhim rol o'ynaydi. Chunki tarmoqning investitsiya jozibadorligining pastligi asosiy


2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi (<https://kun.uz/99444746>).

3 Muallif tomonidan tuzilgan.



vositalarga investitsiyalar jalb etishga to'liq imkoniyat bermaydi. Mamlakat iqtisodiyotini ustuvor rivojlantirishga erishish uchun uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, samarali agrotexnologiya va intellektual mulkni barpo etishga investitsiyalarni yetarli darajada jalb etish iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida zaruriy jarayon hisoblanadi.

Yuqorida zikr etilgan turli xil omillarning ijobiy tarzda amalga oshirilishi xorijiy investitsiyalarning faol kirib kelishiga imkon beradi. Bu esa, tabiiyki, qo'shimcha ish joylari, qo'shimcha daromad, iqtisodiyotning o'sishiga qo'shimcha imkoniyatdir. Bunga qo'shimcha, eng muhimi, xorijiy investorlar o'zlari bilan nafaqat kapital olib kiradilar, balki o'z mamlakatlarida bo'lgan ilg'or bilim va tajribani ham olib keladilar. Bu ham mamlakatning kelgusi iqtisodiy o'sishiga imkon tug'diradi (2-rasm).



2-rasm. Investitsion faollikga oid tushunchlarning o'zaro bog'liqlik mexanizmi⁴

Investitsion jozibadorlikni baholash uchun ikkita muhim jihatga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Birinchisi, ma'lum bir obyektni investitsiyalashning investitsion jozibadorligi. Bunda aniq bir hududiy tizimida mavjud bo'lgan tarmoqlar, sohalar iqtisodiy holati tahlil etiladi. Iqtisodiy tahlilni amalga oshirishda investitsion loyiha va dasturlar samaradorligini aniqlashning tayanch ko'rsatkichlari baholanadi. Ikkinchisi, hududiy xo'jalik tizimining investitsion jozibadorligi. Bunda quyidagi holatlar tahlil etilishi nazarda tutiladi:

- mavjud huquqiy-normativ baza,
- siyosiy vaziyat,
- investitsion infratuzilma,
- ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar,
- investorlar manfaatini himoya qilish darajasi,
- soliqqa tortish darajasi,
- strategik va ma'muriy resurslar.


Yuqorida qayd etganimizdek, investitsion faollik iqtisodiy kategoriya bo'lib, investitsion faoliyatga obyektiv va subyektiv ma'lumotlar orqali ta'sir ko'rsatishi bilan namoyon bo'ladi.

Iqtisodchi olim T.M. Smaglyukova investitsion faollikni belgilovchi barcha ko'rsatkichlaridan kompleks baholash talablariga ko'proq muvofiq keladigan ko'rsatkichlarni ajratib oladi. Uning fikricha, mazkur ko'rsatkichlar investitsion jarayonning barcha tomonlarini aks ettiruvchi investitsion faollik omillari tarkibiga kiritiladi.

4 Muallif ishlanmasi.



Shakllangan ko'rsatkichlarning yig'indisi iqtisodiy tizim va investitsiyalash obyektlari sifatida hududlar faoliyatining tashqi va ichki omillarini qamrab oladi (3-rasm).



3-rasm. Hududlarning investitsion faoligini belgilaydigan omillar⁵

Uning fikricha, barcha keltirilgan omillar yordamida qo'yilmalarning xatarlikka tortilgan darajasi tahlil qilinishi mumkin. Tarmoqlar darajasida qo'yilmalarning xatarlik darajasini baholash uchun ushbu ro'yxatdan siyosiy, ijtimoiy, infratuzilma, qonuniy va jinoiy, innovatsion va resurs-xom ashyo omillari chiqarib tashlangan. Bu ularning tahlil qilinayotgan ko'rsatkichlarni shakllantirishga yetarli darajada ta'sir ko'rsatmayotgani bilan izohlanadi.

Investitsion salohiyat kategoriyasi uzoq vaqt davomida foydalaniladigan aktivlarga, shu jumladan, daromad yoki boshqa iqtisodiy natijalarni ko'paytirish maqsadida qimmatli qog'ozlarga mablag'larni yo'naltirish imkoniyatini sifatida talqin etib kelingan.

Bizning fikrimicha, uni investitsion faoliyatni amalga oshirishning ko'p bosqichli jarayoni sifatida ko'rib chiqqan holda "investitsion jarayon" tushunchasiga aniqlik kiritish zarurati yuzaga keladi.

Bunday holda investitsion jarayonda quyidagi bosqichlarni ajratib ko'rsatish lozim bo'ladi:

- investitsion resurslarni izlash (ham shaxsiy, ham jalb qilingan, omonatga olingan) – birinchi bosqich;
- resurslarni kapital qo'yilmalar (xarajatlar) ga aylantirish, yoki investitsiyalarni investitsion faoliyat (haqiqiy investitsiyalashtirish)ning muayyan obyektiga aylantirish jarayoni – ikkinchi bosqich;
- investitsiyalarning yakuniy iste'moli va yangi iste'mol qiymatini (foydalanishga topshirilgan obyektlar va ishlab chiqarish quvvatlari shaklida) olishni tavsiflovchi qo'yilgan mablag'larni kapital qiymatning oshishiga aylantirish – uchinchi bosqich;
- investitsiyalashtirishning yakuniy maqsadi amalga oshiriladigan foyda (daromad) shaklidagi kapital qiymatning ko'paytirilishi – to'rtinchi bosqich.

Bunday bosqichlarga ajratish nafaqat investitsion jarayonning mohiyatini ochib berish, balki uning ta'minlash mexanizmlarini ham aniqlash imkonini beradi.

Moliyaviy bozorning qaysi bir sektori investitsion faoliyat uchun mablag'larning bosh manbasi bo'lib hisoblanishi aniq bo'lganda, birinchi bosqichning mavjudligi bunday imkoniyatni taqdim etadi.

Bu bosqichda investitsion faoliyatning mexanizmini ta'minlashga bog'liq ravishda investitsion jarayonning ikki asosiy toifasini ajratib ko'rsatish mumkin:

- bank tizimi va iqtisodiyot real sektorining o'zaro hamkorligiga asoslangan investitsion jarayon. Bu holatda xo'jalik subyektlarining shaxsiy mablag'lari bilan bir qatorda tijorat banklarining mablag'lari investitsiyalarning manbasi bo'lib hisoblanadi;
- qimmatli qog'ozlar bozori bilan real sektorning o'zaro hamkorligiga asoslangan investitsion jarayon. Bu holatda investitsion faollik fond bozoridagi operatsiyalar bilan ta'minlanadi.

Investitsion jarayonning ajratib ko'rsatilayotgan toifalarini batafsil ko'rib chiqamiz.

Birinchi toifa investitsion jarayonda bank tizimining faol qo'llanilishi bilan tavsiflanadi. Bank tizimi investitsion jarayonda ikki usul bilan ishtirok etishi mumkin:

1. Jamg'armalar xususiy banklar orqali investitsiyalarga jamlanadi va qayta shakllantiriladi, shu bilan birgalikda xususiy banklar moliyaviy-sanoat guruhlarini shakllantiradi, shuningdek mustaqil kredit muassasalari sifatida harakat qilishlari mumkin.

5 Muallif ishlanmasi.




2. Ustuvor yo'nalishlarda iqtisodiy o'sish amalga oshirishni investitsion qo'llab-quvvatlash rivojlanish instituti sifatida faoliyat yuritadigan davlat investitsion banklari orqali amalga oshiriladi.

Xususiyl banklarning investitsion jarayonda ishtirok etishining birinchi usuli anchadan beri allaqachon shakllangan va ikki model bilan amalga oshiriladi — yirik tijorat banklari ishlab chiqarish korxonalari bilan yaqin hamkorlikda ishlashadi, moliyaviy-sanoat guruhlarini shakllantiriladi. Banklarning moliyaviy va sanoat guruhlaridagi roli mablag'larni to'plash, ularni to'lov asosida joylashtirish, mijozlar o'rtasida hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan shug'ullanadigan institut sifatida bankning asosiy maqsadi bilan belgilanadi. Odatda banklar va korxonalar aksiyadorlashtirish vositasi orqali bir guruhga kiradilar. Investitsion jarayonlarni bunday rag'batlantirish modeli jamg'armalarni investitsiyalarga aylantirishga yordam beradi. Bu modeldagi ijobiy tomon iqtisodiy o'sishning istiqbolli yo'nalishlarida yuqori miqdorda mablag' to'plash va resurslarni jamlashni ta'minlashidan iborat. Investitsion jarayonlarni tashkil etishning bunday modeli urushdan keyingi davrdagi Germaniya va Yaponiyada qo'llanilgan va ularning muvaffaqiyatli rivojlanishiga xizmat qilgan edi. Modelning kamchiligi — moliyaviy va sanoat guruhlarini rahbarlarining noto'g'ri investitsion qarorlar qabul qilishiga nisbatan yuqori sezuvchanlik, shuningdek, ularning bazaviy texnologiyalari eskirishi paytida ishlab chiqarish zanjirlarining haddan tashqari ko'payib ketishi va kapitalning qaytadan to'planish xavf-xataridir.

Investitsion jarayonning dinamikligi uni muvofiqlashtirishning moslashuvchan vositalarini qo'llashni talab etadi va ular uning barcha bosqichlariga tatbiq etilishi kerak. Bunday muvofiqlashtirish o'z oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi hamda ularning asosiylari quyidagilar:

- potensial investorga erkin mablag'larning to'planishi uchun sharoitlar yaratib berish;
- investorlar uchun iqtisodiyotda jozibador tarmoqlar, mintaqalar va korxonalarni tashkil etish;
- iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishga yordam beradigan huquqiy sharoitlarni davlat tomonidan yaratib berish;
- potensial investorga dinamik rivojlanish, ishlab chiqarishni kengaytirish va investitsion foyda hamda daromadni olish va shu kabilar uchun sharoit yaratib berishlarni kiritish mumkin.


Quyidagi rasmda investitsion faollikni aks ettiruvchi omillar ko'rsatilgan (4-rasm):



4-rasm. Investitsion faollikni aks ettiruvchi omillar⁶

Bu vazifalarni hal etish investorlar, investitsion vositachilar, investitsiyani oluvchilar, mintaqaviy, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari zimmasiga yuklatiladi. Mamlakat rivojlanishining turli bosqichlarida investitsion jarayonni muvofiqlashtirishning turli vositalari va usullari qo'llaniladi, ularning jamlanishi va mutanosibligi investitsion mexanizmni shakllantiradi.

Investitsion mexanizm mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish yoki yangidan tuzilayotgan ishlab chiqarishlarni avanslashtirish manfaatlari uchun barcha darajalardagi investitsion faoliyatga maqsadli ravishda yaratilgan, o'zaro harakat qiladigan ta'sir o'tkazish tizimi vositalarini o'zida aks ettiradi. Investitsion mexanizm quyidagi tuzilmaviy elementlardan iborat bo'ladi: resursli, huquqiy, motivatsiyali, tashkiliy (5-rasm).



5-rasm. Investitsion mexanizmning tuzilmaviy elementlari⁷

Investitsiyalarni moliyalashtirishning resursli ta'minlashi uchta shaklda faoliyat ko'rsatadi: ichki moliyalashtirish (kapital qo'yilmalar), tashqi real investitsiyalar va qarzli tashqi moliyalashtirish (kreditlar va omonatlar). Shaxsiy ustav fondi, daromaddan chegirmalar, amortizatsiya, asosiy fondlarga sug'urta qoplamasi, yuqori turuvchi xolding va aksiyadorlik kompaniyalarining moliyaviy mablag'lari va boshqalar ichki investitsiyalarning manbasi hisoblanadi.

Tashqi investitsiyalar ham turli xil manbalarga ega bo'ladi: federal, hududiy va mahalliy budjetlar, tadbirkorlikni rivojlantirish fondlaridan olingan moliyaviy mablag'lar; moliyaviy mablag'lar, moddiy resurslar, nomoddiy aktivlar ko'rinishidagi xorijiy investitsiyalar; xalqaro moliya institutlari va tashkilotlarining to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmalari; omonat mablag'larining turli shakllari (davlat, fondlar, banklar, boshqa tashkilotlar kreditlari, obligatsiyali omonatlar va veksellar).

Investitsion mexanizmning tashkiliy tuzilmasi investitsion jarayonni boshlash, turli loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirish, investitsion faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni baholash va amalga oshirishga yordam beradigan tuzilma va sharoitlarni yaratishni ko'zda tutadi. Investitsion faoliyat uchun huquqiy normalar va soliq qonunchiligi katta ahamiyat kasb etib, kapitalning samarali joylashtirilishi va harakatlanishiga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- innovatsion va tadqiqot faolligi, axborot texnologiyalari sohasida birinchi toifadagi tadqiqot markazlarini qo'llab-quvvatlash;
- texnopark va innovatsion klasterlarni tashkil etish;
- xorijiy investorlar uchun qulay bo'lgan infratuzilma va moliyaviy sharoitlarni shakllantirish. Ular qatoriga: sanoat korxonalarini qurish uchun yer uchastkalari, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari va kasbiy tayyorlash sohasida loyihalarni amalga oshirish uchun grantlar, yer uchastkalari, bino va texnologik uskunalarni xarid qilishga ketgan xarajatlarni qoplash uchun kapital subsidiyalar, soliq imtiyozlarini berish;
- investitsion jarayonlar infratuzilmalarini rivojlantirish uchun davlat-xususiy sherikchilik institutini shakllantirish.

7 Muallif ishlanmasi



Investitsion jarayonning dinamikligi uni muvofiqlashtirishning moslashuvchan vositalarini qo'llashni talab etadi va ular uning barcha bosqichlariga tatbiq etilishi kerak. Bunday muvofiqlashtirish o'z oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi hamda ularning asosiylari quyidagilar:

- potensial investorga erkin mablag'larning to'planishi uchun sharoitlar yaratib berish;
- investorlar uchun iqtisodiyotda jozibador tarmoqlar, mintaqalar va korxonalarni tashkil etish;
- iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishga yordam beradigan huquqiy sharoitlarni davlat tomonidan yaratib berish;
- potensial investorga dinamik rivojlanish, ishlab chiqarishni kengaytirish hamda investitsion foyda va daromadni olish va shu kabilar uchun sharoit yaratib berishlarni kiritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ильинская Т.П., Денисова Е.М., Инвестиционная деятельность: реальные и финансовые вложения / -СПб: [б. и.], 1997. - 151 с.
2. Косов Н.С. Основы микроэкономического анализа Учебное пособие. Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2006.
3. Шарп, У.Ф. Инвестиции / У.Ф. Шарп, Г. Дж. Александер, Дж. Бейли; пер. с англ. - М.: ИНФРА-М, 1997. - 1024 с.
4. Ш.И.Мустафакулов. Инвестицион мухит жозибадорлиги. Тошкент: "BAKTRIA PRESS", 2017 й., Б.39.
5. Хусанов Д.Н. Аграр соҳада инвестицион фаолликни ривожланишининг илмий-назарий асослари "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2016 йил.
6. Yurii A. Rolik. A Complex Approach to Evaluating the Innovation Strategy of a Company to Determine its Investment Attractiveness. // Procedia – Social and Behavioral Sciences, Volume 99, 6 November 2013, pages 562–571. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877042813039712>
7. Сулейманов М., Михин А. Иностранные инвестиции. Монография. – М.: МНИ, 2011. – 93 с.
8. Vaxabov A., Xajibakiev Sh., Muminov N. Xorijiy investitsiyalar. – T.: Moliya, 2010. – 328 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>